

## PSIXIK VA NARKOLOGIK KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA ULARNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

*Zaripova Shirin Yakubboy qizi*  
*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat*  
*Salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada psixik kasalliklarning kelib chiqishi va uni davolash haqida yozilgan. Psixik kasalliklarni o'rganuvchi psixiatriya fani haqida aytib o'tilgan bo'lib ruhiy kasalliklarning zamonaviy davolash choralari haqida so'z boradi. Shuningdek psixiatriyaning bir tarmog'i hisoblangan narkologiya haqida ham yozilgan. Narkologiya yoxud giyohvandlikning zararli tomonlari haqida qisqacha bayon qilingan. Inson psixik kasalliklarini o'rgangan olimlar va ularning mulohazalari, bugungi kundagi psixik kasallarni, narkologik bemorlarni davolashning yakka tartibdagi ya'ni individual davolash kursi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixiatriya, psixiatrit, narkologiya, narkomaniya, giyohvandlik, psixik kasalliklar, psixofaol moddalar, heroin, psixopatiya, nevrozlar, alkogolizm, ijtimoiy psixiatriya, sud psixiatriyasi.

Tashqi tasirlar yoki jismlar natijasida nafaqat jismoniy shikastlanish balki psixik kasalliklarga ham chalinish mumkin. Psixik kasalliklar kuchli qo'rquv yoki bosh miyaning qattiq jarohatlanishi natijasida yuzaga keladi. Narkologiya tushunchasi ham psixik kasalliklar bilan bog'liq bo'lib bazi tadqiqotchilar psixiatriyaning bir tarmog'i sifatida, boshqalari esa psixiatriyadan paydo bo'lgan alohida mustaqil tibbiyot fani deb hisoblaydilar. Psixiatriya va narkologiya fan sifatida tibbiyot sohasiga yaqinda kirib keldi. Ammo bugungi kunda ular dolzarb muammolarga aylandi. So'ngi yillarda mamlakatimizda psixik kasalliklarni davolash va narkologiyani oldini olish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar qilindi. Shuningdek, 27.10.2022-yilda "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi O'RQ - 644- son Qonun e'lon qilindi. Hujjat 3 oy o'tgach kuchga kirdi va amaldagi "Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtal bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi Qonunning o'rnini egalladi. Qonunda Hukumat, Sog'liqni saqlash vazirligi, IIV hamda mahalliy ijro etuvchi organlarning narkologik yordam sohasidagi vakolatlari belgilangan. Narkologik kasalliklar profilaktikasida ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta'lim muassasalari, mehnat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham ishtirok etadi. Bu qonun hozirda o'z kuchida bo'lib tegishli mas'ullar narkologiyani oldini olish bo'yicha ishlar olib bormoqda va psixik kasalliklarni davolash bo'yicha ham bir nechta tadqiqot, ilmiyamaliy ishlar qilindi.

Psixik kasalliklarni dastlab yunon doktorlari o'rgana boshlaganlar. Gippokrat psixik kasalliklar ham boshqa kasalliklar kabi tashqi muhitning organizmga salbiy ta'siri natijasida paydo bo'lishini birinchi bor aytgan. Abu Ali Ibn Sino ham asab va ruhiy kasalliklarni davolash sohasiga ko'pgina yangiliklar kiritgan. U psixik kasalliklar haqidagi xurofiy tushunchalarni ( masalan, bu kasalliklarni jinlar keltirib chiqaradi degan fikrni ) rad etib, asab va ruhiy kasalliklar ham boshqa kasalliklar kabi tashqi muhitning odam organizimiga salbiy ta'siridan va organizmning o'zida ro'y beradigan o'zgarishlardan paydo bo'ladi deb bilgan. Psixik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari va rivojlanish mexanizmlarini o'rganuvchi, ularning oldini olish, davolash va bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish usullarini ishlab chiquvchi fan bu - - Psixiatriya. Psixiatriya fan sifatida XVIII asr oxirlarida, psixiatriya bo'yicha dastlabki ilmiy ishlar paydo bo'lgan va ruhiy kasalliklar bosh miya kasalliklari sifatida qarala boshlagan vaqtdan rivojlana boshladi. Bu fanga A.Mayor, I.P.Pavlov, I.V. Kashchenko, E.Beyler, shuningdek, vatanimizning Abu Ali Ibn Sino, Alimov X.A , Afanasyev D.V. kabi fan namoyondalari o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. Narkologiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak. Narkologiya ham psixiatriya kabi tibbiyot sohasi sifatida boshqa yo'nalishlarga nisbatan yaqinda shakllangan fan. Lekin shuni ham aytib o'tish joizki, psixofaol moddalarni qabul qilish qadim zamonlardan beri amalda bo'lgan. Alkogolizm tizimli o'rganish XVIII -- XIX asrlarda boshlangan, narkologlar esa spirtli ichimliklarni qabul qilish, ularni is'temol qilishni kasallik deb hisoblashgan. Ushbu tadqiqotlar natijalari tufayli narkologiya tibbiy ilmiy bilimlarning alohida sohasi sifatida paydo bo'ldi. Rossiyada narkologiya alohida tibbiyot fani sifatida 1960-1970- yillarda asos solingan. Tarixiy jihatdan narkologiya klinik psixiatriya bilan bog'liq bo'lib, uning tadqiqot usullari asosan biomedikaldir. Uzoq vaqt davomida narkologiya bo'limlari (giyohvandlik va alkogolizm) faqat psixologiya bo'yicha ma'lumotnomalar va qo'llanmalarga kiritilgan edi. Endilikda narkologiya global muammoga barham berish bo'yicha mustaqil fan sifatida o'rganilmoqda. Aynan hozirgi kunda narkologiya giyohvandlikning paydo bo'lish mexanizmlari va sharoitlarini o'rganadi. Psixik kasalliklarning ko'pgina turlari ( jumladan, avvallari tuzatib bo'lmaydi deb hisoblangan turlari) muvaffaqiyatli davolanmoqda. Ilgarlari nogironlikka chiqarib yuboriladigan o'tkir psixoz bilan kasallangan bemorlarni tuzatib yuborish usullari ishlab chiqildi. Natijada psixiatriya kasalxonalarining yo'nalishi o'zgardi. Psixiatriya ilmining keng rivojlanishi psixiatriya imkoniyatlari ko'lamini oshirdi. Zamonaviy psixiatriya o'tkir psixoz kasalligiga uchragan bemorlarnigina emas, balki psixopatiya, nevrozlarni, alkogolizmni, kayfiyat o'zgaruvchanligi ( emotsional qo'zg'aluvchanlik) va uyqusizlikni ham davolaydi. Xususiy psixiatriya esa ruhiy xastaliklarning alohida turlarini ko'rib chiqadi, qiyosiy diagnostikasi va davolash masalalarini o'rganadi. Bundan tashqari, keyingi vaqtda psixiatriyadan yangi tarmoqlar: bolalar psixiatriyasi, o'smirlar psixiatriyasi va sud psixiatriyasi, narkologiya

ajralib chiqdi. Psixiatriyada fiziologiya, psixologiya, genetika va boshqa fanlarning erishgan yutuqlari keng qo'llaniladi. Ruhiiy bemorlarni davolash imkoniyatlari kundan kunga kengayib bormoqda. Masalan, XX asrning 50-yillaridan boshlab ruhiy o'zgarishlarni davolashda markaziy nerz sistemasida sodir bo'ladigan jarayonlarga bevosita ta'sir etadigan psixofarmakologik vositalar qo'llanmoqda. Hozirgi zamon psixiatriyasi faqat klinik fan bo'lib qolmay, balki ijtimoiy va psixologiya masalalarini hal qilishda ham ishtirok etadi. O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar va muhokamalar shuni ko'rsatadiki, narkologik kasalxonalarda giyohvandlarni davolash hozirda samarasiz deb bisoblanadi, chunki 1 yillik statsionar davolanishdan keyin remissiya odatda faqat 9-12% yosh bemorlarda kuzatiladi. G'arb mamlakatlarida giyohvandlik uchun farmakologik davolash usullari, masalan, geroinga qaramlikni palliativ davolash sifatida metadon o'rnini bosuvchi terapiya qilinadi. Rossiyada bu davolash usuli qo'llanilmaydi, chunki metadonning aylanishi butunlay taqiqlanganligi sababli. Narkologiyani davolashning eng adekvat va maqbul usullari hozirgi vaqtda individual bemor bilan psixo-tuzatish ishlariga qaratilgan rehabilitatsiya psixologik qaramlikni bartaraf etishning boshqa usullari, shu jumladan psixodelik psixoterapiya usullari (shu jumladan, dori-darmonlarsiz golotropik nafas olish) usullari ham sinab ko'rilgan. Bugungi kunda psixik kasalliklarni hamda narkologik kasalliklarni davolashning bir qancha samarali usullari qo'llanilmoqda va deyarli ular yaxshi natija bermoqda. Ilgarlari psixik kasalliklarning eng yuqori bosqichiga yetgan bemorlarni davolashni iloji bo'lmagan, ularga nogiron odamdek qaralgan. Biroq hozirgi kunda bunday bemorlar ham uzoq muddatli yakka tartibdagi davolash kursidan so'ng kutilgan natijaga ya'ni bemorni avvalgi holatiga qaytarishga erishildi. Narkologiyada esa bemor kasallikning qaysi darajasiga kelganligiga qarab uni davolab tuzatish mumkin. To'g'ri, biz yashab turgan davrda ko'plab og'ir kasalliklarga davolash topilgan. Ammo odamlar xususan yoshlar, o'smirlar shuni unutmash kerakki, narkologiya bu o'limga yo'l. Narkotik moddalar inson qon bosimiga, aqliy faoliyatiga, sog'lom turmush tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Yosh organizmni o'limga, homilador ayolning hali tug'ilmagan bolasini nogiron bo'lib dunyoga kelishiga sabab bo'ladi. Har yili dunyoda millionlab insonlar narkologiyadan vafot etadilar. Har yili o'lim soni ortib boradi. Bundan ko'rinib turibdiki, odamlar o'rtasida psixotrop va psixofaol moddalarga bo'lgan qaramlik ham ortyapti. Ayniqsa giyohvandlik o'smirlar o'rtasida avj oldi. Yoshlarning narkologiya haqida tushunchasi yetarli emasligi oqibatida, bu og'uning kushandasiga aylanib qolmoqda. Shuning uchun, so'ngi yillarda mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha profilaktik ishlar olib borildi. Yoshlarga narkomaniyaga duchor bo'lmaslik to'g'risida ko'rsatmalar berildi. O'ylaymanki endi bu kasallikning bemorlari yildan yilga ortmaydi balki kamayadi. Zero giyohvandlik bu -- umr zavoli.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2004-2017.
2. Psixiatriya va Narkologiyada hamshiralik ishi. Toshkent . "IQTISOD-MOLIYA" 2008.
3. Psixiatriya. Xodjayeva.N.I. Yusupova.A.U Alimov.U.X. Magzumova.Sh.Sh. Toshkent 2011.
4. Бекмиров, Т. Р. (2021). Формирование эмоциональная устойчивость личности. Интернаука, (1-2), 26-27.
5. Bekmirov, T. R. (2020). Psychological features of adaptation and integration of children with developmental disabilities. Pedagogy and psychology in the modern world: theoretical and practical research, 125-129.
6. Рашидович , Б. Т. . (2022). ПОНЯТИЯ НЕВРОЗА В ПСИХОЛОГИИ И ИХ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL, 3(3), 90–93.
7. Мелибаева, Р. Н. (2018). Проблема умственного развития в трудах психологов советского периода. In International scientific review of the problems and prospects of modern science and education (pp. 127-129).
8. Nasirovna, M. R. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS IN CLINICAL PRACTICE. Conferencea, 4-6.